ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

yuqori bosqichga ko‘tarildi. Irfon tushunchasining «tavhid», «komil inson», «vahtad ul-vujud», «ma‘rifat va haqiqat» tarannumi davr she‘riyatining tub mohiyatida aks etdi.

Rezyume: Maqolada tasavvuf taraqqiyoti, timsollarning she‘riyatda ifodalanishi, g‘azal tahlili misollar tariqasida yoritilgan.

Resume: The article covers the development of Sufizm, the expression of symbols in poetry, and the analysis of ghazals as examples.

Резюме: В статье рассматривается суфизма, выражение символов в поэзии, а также анализ газелей на примере.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDAN BIR G‘AZAL TAHLILI

Nazarova Namuna Abdumajitovna,
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ilmiy-adabiy manbalarda ta’kidlanganidek, g‘azal –arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, sevish, muhabbat izhor etish degan ma’nolarni bildiradi va sharq adabiyotining, jumladan, mumtoz adabiyotimizning asosiy janrlaridan biri hisoblanadi.Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra g‘azal atamasi dastlab arab she’riyatida paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyo va sharq xalqlari adabiyotida XIII-XIV asrlarda to‘la shakllangan. Fors-tojik adabiyotida g‘azal janrining taraqqiyoti Sa’diy, Amir Xisrav Dehlaviy, Hofiz, Abdurazzoq Jomiylar ijodida yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Milliy adabiyotimizda g‘azalning ilk namunalari Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy», Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sida uchraydi. Keyinchalik Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar kabi shoirlar bu janrning yanada ommalashishiga va rivojlanishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishdi. XX asr she‘riyatiga ham nazar tashlasak, bu janrga murojaat qilgan ijodkorlar borligini ko‘ramiz. «Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammad Sharif So‘fizoda, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, G‘ayratiy, Maqsud Shayxzoda, Sobir Abdulla, Mirtemir, Uyg‘un, Habibiy, Charxiy, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, J.Kamol, Turob To‘la va boshqa shoirlar yangi voqelik mavzusida sermazmun g‘azallar yaratishgan.»[1]Yaratilgan barcha g‘azallar nafaqat ishq- muhabbat to‘g‘risida, balki ularda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy- axloqiy masalalar talqiniga ham urg‘u berilgan. O‘tgan asrning oxirlarida o‘z so‘zi, o‘z ovozi bilan adabiyot maydoniga kirib kelgan Sirojiddin Sayyid ijodida ham g‘azal janrining yetuk namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Shoir g‘azallari mazmuni, g‘oyaviy mundarijasi, obrazlar tizimi, mavzulari va shakllari jihatidan o‘z salaflarinikiga o‘xshash hamda yangicha badiiy topilmalar, yangicha tashbehlar bilan alohida ajralib turadi. Shoirning «…bo‘lgay» radifli g‘azali pand-nasihat ruhida yozilgan. Sakkiz baytdan iborat bo‘lgan bu g‘azal hazaj bahrida bitilgan bo‘lib, vazni hazaji musammani solimdir: V - - -/ V - - -/ V - - -/ V- - -/

Yonib o‘tgil jahonda to dil ichra otashing bo‘lgay,
V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - - /
O‘zing ozoda bo‘l avval- iching yoki tashing bo‘lgay.[2]
V - - -/V - - -/ V - - - / V - - - /

Har misrada ruknlar soni to‘rtta, har bir rukn solim, ya’ni to‘liq. Shuning uchun ham bu g‘azal vazni

[1] Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 483.
[2] Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami. III jild. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 454.

hazaji musammani solim deyiladi. Shu o‘rinda birinchi misraning uchinchi ruknida vasl hodisasi ro‘y berganini ta‘kidlab o‘tmoqchiman.Ya’ni dil ichra jumlasi hijolarga bo‘linganida dil- ich- ra shaklida bo‘lib cho‘ziq, cho‘ziq, qisqa (--V) bo‘lishi lozim edi. Vazn talabi bilan esa vasl hodisasi sodir bo‘lib, oldingi undosh harfning keyingi unliga birikishi kuzatiladi, ya’ni dilich- ra (V - -). Bu esa vazndagi mutanosiblikni vujudga keltirgan. Shoir bu hayotda yashashdan maqsad shunchaki kelib-ketish emas, yonib, ya’ni harakatda, mehnatda, izlanishda bo‘lish kerakliligini ta‘kidlaydi va bunda jismonan, ruhan pok bo‘lish muhimligi aytiladi. Matladagi radif vazifasini bajargan «bo‘lgay» so‘zining ikki o‘rinda ma’no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanib turishi kishi diqqatini tortadi. Birinchi misradagi bo‘lgay so‘zi «tanangda joning bo‘lsa, to tirik ekansan, shijoating bo‘lsa» degan ma’nolarni anglatsa, ikkinchi misrada esa «xoh ichki dunyoing, xoh tashqi qiyofang, umuman, butun vujudni (bunda ruh va tana birligi nazarda tutiladi)» toza bo‘lish lozimligi uqtiriladi. Bu o‘rinda shoir «bo‘lgay» orqali qaysi bo‘lishidan qat’iy nazar, har ikkalasi ham degan ma’noni yuklaydi. Shoir birinchi misradagi «bo‘lgay» ga nisbatan ikkinchi misradagi «bo‘lgay»ga qat’iyatlilik rangini, bo‘yog‘ini singdiradi.

Umr – yarmi riyozatdir, yana yarmi rivoyatdir,

Bu ne mahzun hikoyatdir, dilingdek sarkashing bo‘lgay.

Bu bandning birinchi misrasidaga *umr* so‘zi o‘ta cho‘ziq hijolar qoidasiga muvofiq – V shaklda ifodalanishi lozim edi, lekin bu o‘rinda ham vazn talabi bilan «u» harfi bitta hijo bo‘lib,qisqa tarzda talaffuz etishni taqozo qilsa, «m» va «r» harflari bitta hijoni tashkil etishni va vazn talabi bilan bilinar-bilinmas bir «i» tovushini orttirishni talab etadi va natijada V – shakldagi paradigma hosil bo‘ladi. Bu bandda shoir inson umri tahliliga kirishadi. Riyozat so‘zi «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da qiyinchilik, mashaqqat, og‘ir mehnat, zahmat kabi ma’nolar ifodalashi ta‘kidlangan.[1] Rivoyat so‘zining esa hikoya, afsona degan ma’nolari borligini hisobga olsak, bu o‘rinda yolg‘on degan mazmun kelib chiqadi. Inson umrining zahmatlardan, yolg‘onlardan iboratliligi, ustiga-ustak «dilning sarkashligi», ya’ni aqlga bo‘ysinmaydigan o‘jar, qaysar dilning borligi shoirni tashvishga soladi, o‘ylantiradi. Shu o‘rinda yana bir jihatga e‘tibor qaratish lozim. Dil tushunchasini pok niyatli, ruhiyati toza, fikri sog‘lom odamlarga nisbatan qo‘llash o‘rinlidir. Dili bor inson hech qachon boshqalarga yomonlik qilolmaydi, har qanday zahmat, qiyinchiliklarni o‘z bo‘yniga oladi va har qanday dard-alam, mashaqqatlarga bardosh beradi. Bu esa o‘z navbatida toliqishga, mahzunlikka olib keladi.Bu holatlar esa shoirga ham, g‘azalni o‘qib maroqlangan ko‘ngil egasiga ham begona emas.Umr haqida biroz mushohadaga kirishgan shoir boshqalarni ham bu to‘g‘rida fikr yuritishga undaydi.

Keyingi bandda shoir ma’naviy san’atlar turiga kiruvchi «irsoli masal»dan mohirona foydalanadi.

Ariq ichra oqar suvday o‘tar vaqting, hayoting ham-

Bu qirg‘oqdan u qirg‘oqqa sening bir sakrashing bo‘lgay.

«She‘rda maqol, matal, hikmatli so‘zlarni muayyan maqsadda ishlatish usuli irsoli masal deb ataladi.»[2] Bu bandda shoir «Umr –oqar daryo» maqoli mazmunidan o‘rinli foydalangan. Bandning ikkinchi misrasi shoirning poetik topilmasidir. Insonga berilgan umr «ikki eshik orasi», «ko‘z ochib yumgunchalik fursat», «oqar daryo» kabi jumlalar bilan ta’riflanadi. Sirojiddin Sayyid bu tavsiflar safini badiiy topilma sifatida yana bittaga ko‘paytira oldi. Goho jo‘shqin, goho sokin, goho mahzun, goho po‘rtanali hayotni «ikki qirg‘oq» orasiga «joylaydi» shoir. «Sakrashing» so‘zini «sarkashing» so‘ziga munosib qofiya sifatida qo‘llay olgan.

Ulug‘ bo‘lgay kichik yo‘l ham, ko‘ngildan uzma ko‘ngil ham,

Sevolsang behusn gul ham munosib mahvashing bo‘lgay.

Bu bandning ham ikkinchi misrasidagi *behusn* so‘zi vazn talabi bilan taznib hodisasiga uchragan, ya’ni bir tovush orttirilib talaffuz etish talab qilinadi:

Se – vol- sang be/ hu- sun gul ham/ mu- no-sib mah/ va-shing- bo‘l- gay/

V - - -/ V - - - / V - - - / V - - -/

Bu bandda tazod va istiora san’atidan mohirona foydalangan va g‘azalga ikki xil ma’no yuklagan. «Ulug‘ bo‘lgay kichik yo‘l ham, ko‘ngildan uzma ko‘ngil ham» ushbu misrada ulug‘ va kichik so‘zlari o‘zaro tazodni vujudga keltirgan. Qolaversa, bu so‘zlarga qo‘shimcha ma’no yuklagan, ya’ni ular nafaqt yo‘lning katta- kichikligini, balki ulug‘ niyatlarning paydo bo‘lishi, yuksak orzular ro‘yobini amalga oshishiga ishora qiladi. Bunday natija esa qachonki ko‘ngildan ko‘ngil uzilmaganda, ya’ni Ollohdan umid uzilmaganda, e’tiqod mustahkam bo‘lganda sodir bo‘ladi. «Sevolsang behusn gul ham munosib mahvashing bo‘lgay» bu misrada shoir bir o‘rinda tazod va ikki o‘rinda istiora san’atini qo‘llagan. «Sevolsang behusn gul ham» –bu o‘rinda gul so‘zi istioradir, chunki bu so‘z o‘z ma’nosi, ya’ni o‘simlik ma’nosini anglatyotgani yo‘q. Uning go‘zalligi, ko‘zni olish, ko‘zni quvontirish jihatlari jumlada tilga olingan yorga nisbatan qo‘llanilgan. Shoir «gulday go‘zal qiz» demasdan ham vazn, ham qofiya, ham ortiqcha so‘z

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati .www.ziyouz.com kutubxonasi.

[2] Asallayev.A va boshq. Badiiy san’at jozibasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 8.

ishlatmaslik talabi bilan «gul»ning o‘zini qo‘llashni lozim topgan. Shu o‘rinda shoir tazod san’atini ham qo‘llab badiiy bo‘yoqdorlikni oshirgan.Gul deyilganda go‘zallik, husnda tengsizlik anglashiladi. Shoir bu so‘zni behusn so‘zi bilan qo‘llab tazodni vujudga keltirgan. Bu bilan ta‘riflanayotgan yorning tengsiz go‘zalligiga urg‘u beradi. Mahvash so‘zi –oy yuzli, yuzi oyga o‘xshash, go‘zal[1] degan ma’nolarni ifodalaydi. Bu o‘rinda ham shoir istiorani qo‘llaydi, ya’ni «oy yuzli go‘zal yor « deyish o‘rniga mahvash so‘zini keltirib ortiqcha so‘z aytishdan tiyiladi va tilimizning eskirib qolgan qismini qalamga olib kitobxonga havola etadi. Baytdan maqsadli qo‘yilgan har qanday ish ijobiy samara berishi tushuniladi. Keyingi bayt ham ushbu bandning ma’nosini ochishga yordam beradi. Ular bir-biri bilan bevosita bog‘liq.

Falakda yulduzingdir bu, kechangdir, kunduzingdir bu,

Qaro, yorug‘ yuzingdir bu –chining yo chalkashing bo‘lgay.

Bu o‘rinda shoir kecha-kunduz,qaro-yorug‘, chin-chalkash so‘zlaridan tazodni shakllantirgan. Tanlagan yoring, tanlagan yo‘ling sening taqdiringdir, ya’ni hayoting yorqin, nurafshon, tekis, to‘g‘ri, bir maromda ketishi, yoki aksincha bo‘lishi sening niyatlaringga, harakatlaringga, intilishlaringga bog‘liq, demoqchi bo‘ladi shoir.

Quyidagi baytda shoir mumtoz adabiyotimiz namoyondalari an’analariga muvofiq holda hayotni, tiriklikni may to‘la jomga qiyoslaydi.

Tiriklik may tovla jomdir, gahi sof, gohi gulfomdir,

Kelib ketmog‘liging bori-shuni bir chayqashing bo‘lgay.

Shoir nazdida hayot goh toza, goho esa chirkinliklarga to‘la. Ijodkorning ushbu fikrlari sof-gulfom so‘zlari o‘zaro qarshilantirilganda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Keyingi misra shoirning ajoyib topilmasi –badiiy o‘xshatmasi bilan yanada jozibadorlik baxsh etadi: «Kelib ketmog‘liging bori-shuni bir chayqashing bo‘gay»- shoir umrning juda qisqaligini yuqoridagi bandda bu qirg‘oqdan u qirg‘oqqa sakragunchalik fursatga qiyoslagan bo‘lsa, bu o‘rinda esa vaqtning shiddatiga urg‘u berib jomni bir chayqatish imkoniyatichalik onni tilga oladi.

Hayoting bog‘idan bir-bir, uchar barglar kabi zir-zir,

Quvonching yoki qayg‘ung bor,maloling yo g‘ashing bo‘lgay.

Bu bandning birinchi misrasidagi barglar so‘zi bilan biroz noqulay paradigma vujudga keladi. Hijolar qoidasiga binoan barg so‘zi qator undosh bilan tugagan so‘z bo‘lganligi uchun bir cho‘ziq – va bir qisqa V shaklda bo‘lishi lozim edi. Bu o‘rinda esa vazn talabi bilan barg so‘zini bitta hijo- cho‘ziq hijo deb qarash o‘rinli bo‘lmoqda:

Ha- yo-ting bo/ g‘i- dan bir-bir/ u- char barg-lar/
ka- bi zir-zir/

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -/

«Bir narsani ikkinchi bir narsaga o‘xshatish tashbeh deb ataladi.O‘xshatishdan kuzatiladigan badiiy maqsad-obrazlilikdir.»[2] Birinchi misrada aynan tashbeh san’ati qo‘llanilgan.Shoir inson hayotida kunlarning, oylarning, yillarning o‘tishini barglarning zir-zir uzilashiga qiyoslaydi.Topganing –quvonch yoki qayg‘u, garchi senga malol kelsa-da, g‘ashingni keltirsa-da –ular senikidir.Bu bilan shoir kitobxonni hayotida malol keltirmaydigan, g‘ashiga tegmaydigan natijalar qoldirishga, ya’ni oxiri xayrli bo‘lib tugaydigan ishlar bilan shug‘ullanishga undaydi.

Dilingdek dil topolmassan, elingdek el topolmassan,

Yomondir, yaxshidir, oxir shu el tobutkashing bo‘lgay.

Ushbu misralar bilan shoir kitobxonni oxiratni o‘ylashga undaydi. Shoir doimo el-yurt, raiyat, xalq bilan birga bo‘lishni, hayotning quvonch va tashvishlarini birgalikda baham ko‘rishni yorqin bo‘yoqlarda aks ettirgan. Jaloliddin Rumiy hazratlari «Har kimning bosayotgan qadami niyatiga bog‘liq»,-degan. Zero, niyatlari pok, maqsadlari ulug‘,qalami o‘tkir, she’riyat bo‘stonida o‘z so‘ziga ega bo‘lib kelayotgan shoir Sirojiddin Sayyid ijodini, jumladan, g‘azallarini ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq qilish, she‘r va g‘azallariga singdirilgan insoniy tuyg‘ular, insoniy fazilatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Rezyume. Maqolada Sirojiddin Sayyid g‘azali mavzu, g‘oya, vazn talablari jihatdan tahlilga tortilgan. G‘azalda qo‘llanilgan badiiy san’atlar, shoirning poetik topilmalari tilgan olingan.

Резюме. В статье проанализированы тема, идея, весовые требования поэзии Сирожиддина Сайида, описаны художественные искусства, примененные в поэзии, поэтические находки поэта.

Resume. The article analyzes the theme, idea, and weight requirements of Sirojiddin Sayyid’s ghazal.The artistic arts used in the ghazal, the poet’s poetic findings are mentioned.

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati .www.ziyouz.com kutubxonasi.
[2] Asallayev A. va boshq. Badiiy san’at jozibasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 4.